

**MAVZU: TO'QIMACHILIK TOLALARING TASNIFI, ULAGAR HAQIDA  
MA'LUMOT**



**DAVLATOVA NASIBABAXON TURSINALIYEVNA**

*Oltinko'l tuman 1-son politexnikumi*

*Ishlab chiqarish ta'limi bo'yicha direktor o'rindbosari*

O'zbekiston Respublikasining oldida turgan eng muhim vazifalardan bin — aholini sifatli hamda bejirim tikuvchilik buyumlari bilan ta'minlashdir. Chunki, u insonlarni atrof-muhitdan himoya qilishga, ularning go'zalligini ta'minlashga mo'ljallangan.

Tikuvchilik buyumlari materialshunosligi fani, to'qimachilik materiallari, ya'ni, tola, ip, eshilgan mahsulot, gazlama, trikotaj va noto'qima matolarning olinishi, tuzilish xossalari va shu xossalarni o'rganishda ishlatiladigan uslub va asbob-uskunalaridan foydalanishni o'rgatadi. Tikuvchilik materiallarining deyarli barchasi to'qimachilik tolalaridan iborat. Turli xilmaterialarning tashqi ko'rinishi, xususiyatlari va tikuvchilikda ishlatilishi, ularni tashkil etuvchi tolalarning xossalariiga bog'liq.

To'qimachilik tolesi deb, egiluvchan, ma'lum uzunlik va mustahkamlikka ega, ko'ndalang kesim yuzasi kichik, to'qimachilik mahsulotlari olish uchun ishlatish mumkin bo'lgan jismga aytildi.

Bo'yamasiga shikastlanmasdan ajralmaydigan to'qimachilik tolasiga tanho tola deb ataladi.

Bir necha tanho tolalarning bo'yamasiga qo'shilishidan hosil bo'lgan to'qimachilik tolesi birikkan (kompleks) tola deb ataladi.

To'qimachilik tolalari— bu egiluvchan, pishiq, kichik ko'ndalang kesimga ega bo'lgan, cheklangan uzunlikdagi va to'qimachilik buyumlarini ishlab chiqarishda qo'llaniladigan cho'zinchoq jismlardir. Qo'llaniladigantolar tasnifi.


Umumiyl tasniflashning birinchi bo'limini tashkil qiluvchi to'qimachilik materiallari —

tolalar uchun ajratilgan, chunki boshqa deyarli barcha to'qimachilik mahsulotlari tolalardan tashkil topadi.

To'qimachilik sanoatida qo'llaniladigan asosiy mahsu-lottola hisoblanadi.Ularning turlari ham juda xilma-xildir. Tolalarni o'rganishda qulaylik yaratish maqsadida olimlar tomonidan ularni tasniflash (klassifikatsiyalash) taklif qilingan. Dastlabki tasnif rus olimi M.Ya. Kittari tomonidan 1860- yilda taklif etilgan.

U o'z tasni-fida XVII asrda yashagan fransuz kimyogari N. Lemerit tasnifi-dan foydalangan.

Tasnif asosig a2ta prinsip qo'yilgan, bular:—tabiiy tolalar uchun ularning kelib chiqishi;



Tabiiy tolalar deyarli barchasi qishloq xo'jaligi mahsulotlariadir. Ular nar joyning o'z muhitiga moslashgan bo'lib,dastlab yovvoyi holda paydo bo'lgan va keyinchalik madaniylashtirilib,keng miqyosda yetishtirila boshlangan.Kimyoviy tolalar — sanoatda, inson ishtirokida, turli kimyoviy, fizik-kimyoviy va boshqa jarayonlarni qo'llash yordamida turli sanoat chiqindilari, organik va noorganik polimerlarni qay-ta ishslash orqali tayyorlanadigan tola va iplardir. Tabiiy organik tolalar jumlasiga qo'y, echki, tuya va boshqa hayvonlarning terisi ustidagi tuk qoplamasidan olinuvchi jun tolalari, tut va eman qurtlarining bezlari ishlab chiqaradigan tabiiy ipak kiradi.

Tabiiy noorganik tolalarga tosh paxta tolesi kirib,utog 'birikmalaridan ishlab chiqariladi.


Kimyoviy tolalarga tabiiy yoki sintez yo'li orqali olingen yuqori molekulali birikmalarni kimyoviyusulda ishlov berish asosida olinadigan tolalar kiradi.Xuddi tabiiy tolalardek kimyoviy tolalar ham organic va noorganik moddalardan iborat bo'ladi.

Organik kimyoviy tolalar sun'iy va sintetik tolalarga bo'linadi.Agar tola tabiatda uchrovchi yuqori molekulali birikmalardan olinsa, u sun CH<sub>4</sub> tola deb ataladi. Agar tola olish uchun ishlatiluvchi yuqori molekulali birikmalarni sintezlash yo'li orqali olinsa,bunday tolalar sinletik tola deb ataladi.

Sun'iy kimyoviy tolalarga sellyuloza va uning efirlaridan olinuvchi viskoza, mis-ammiak va atsetat tolalari, oqsil moddalardan olinuvchi kazein, zein va hakozalar kiradi. Sintetik kimyoviy tolalarning assortimenti juda keng bo'lib, ularga

poliamidlardan olinuvchi kapron, anid, enant; poliefirdan — lavsan; poliakrlnitrildan — nitron; polivinibdoriddan — xlorin; polivinil spirtidan — vinilon; poliuretandan — spandeks; poliolefindan — polipropilen, polietilen tolalari vashularga o'xshash bir qator tolalar kiradi.

Noorganik kimyoviy tolalarga metal va shishadan olinuvchi tolalar kiradi.



Tolalarning asosiy xossalari jumlasiga uzunligi, yo'g'onligi, mustahkamligi, cho'zilishdagi uzayishi, gigiyenik xossalari kiradi. Tolalar uzunligi — tekislangan tolaning ikki uchi orasidagi masofani bildiradi. U millimetrik (paxta tolasi), santimetr (gun tolasi) yoki metr (kimyoviy tolalar) birliklarida ifodalaniladi.

Tolalar yo'g'onligi — uni ifodalash uchun bir qancha ko'rsatkichlar ishlataladi. Bulardan biri — tolalarning diametrini o'lhash, ikkinchisi esa, ularning ko'ndalang kesimining yuzasini aniqlash va boshqalar. Lekin, tolalar juda ingichka jism bo'lganligi sababli bu ko'rsatkichlarni aniqlash uchun ko'p vaqt sarf qilish va maxsus hozirlik ko'rish kerak. Shu tufayli tolalarning yo'g'onligini ifodalash uchun chiziqiy zichlik kabi bevosita ko'rsatkichlar qo'llaniladi. Chiziqiy zichlik T (g/km yoki teks) — tolaning

1000 metr uzunlik birligiga to'g'ri keladigan massasi bo'lib, u quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$T = m/L$ , buyerda:  $m$ —tolaning massasi,  $g$ ;  $L$  — tolanning uzunligi, km.

Tola yo'g'onligi bilan teks miqdori orasida to'g'ri bog'liqlik mavjuddir, ya'ni tola qancha ingichka bo'lsa, teknsning kattaligi ham shuncha kichik bo'ladi.

Tolalarning mustahkamligi — tolalarning mustahkamligi uzish kuchi ko'rsatkichi orqali tavsiflanadi. Uzish kuchi deb tolalarni cho'zganda uzish uchun sarf qilingan kuchga aytildi. Bu kuchning o'lchov birligi Nyuton (N) dir. Uzish kuchi  $P$  harfi bilan ifodalaniladi va maxsus uzish mashinalari yordamida aniqlanadi. Turli xil yo'g'onlikdagi tolalarning mustahkamligini taqqoslash uchun nisbiy uzish kuchi  $P_n$  ( $sN/teks$ ), ya'ni tolanning yo'g'onlik birligiga to'g'ri keladigan uzish kuchining miqdori ishlataladi. U quyidagi formula yordamida hisoblanadi:  $P_n = P/T$  buyerda:  $P$ —tolaninguzish kuchi,  $sN$  (santinyuton);

$T$  — tolanning chiziqiy zichligi, teks. Tolalarning cho'zilishdagi uzayishi — tolalarning uzilish paytidagi uzayishi uzilishdagi uzayishi (cho'zilishi) deb ataladi. Bu ko'rsatkich uzish kuchini aniqlagan bir paytdauzish mashinalarida aniqlanadi. Umillimetryoki foizbirliklarida ifodalaniladi. To'liq uzayish asosan qayishqoq, elastik va plastik uzayishlardan iborat. Qayishqoq uzayish kuchni olingani bilan darholyo'qoladi. Elastik uzayish esa kuch olingandan keyin asta-sekinlik bilan ma'lum vaqt davomida yo'qoladi. Plastik uzayish esa yo'qolmaydi. Tolalarning qayishqoq, elastik va plastik uzayish xossalari nisbatan to'qimachilik buyumlarining g'ijimlanmasligiga, kiyim o'z shaklini saqlay olishiga ta'sir qiladi. Masalan, o'simlik tolalaridan to'qilgan gazlamalar g'ijimlanuvchanlidir, chunki bu tolalarda plastik uzayish yuqori, jun va sintetik tolalarning uzayishida qayishqoq va elastik qismlari yuqoriroq bo'ladi. Shuning uchun bu tolalardan olingen gazlamalar uncha g'ijimlanmaydi.

Tolalarning gigiyenik xossalari kishilarning sog'ligini saqlashga yordam beradi. Bularga tolalarning gigroskopligi, havo o'tkazuvchanligi, issiqni saqlash xossalari va hokazolar kiradi. Gigroskoplik — bu tolalarning o'ziga suv bug'larini shimib olish xususiyati. Bu xossa haqiqiy, konditsion va maksimal namlik bilan baholanadi.

Haqiqiy namlik — ayni muhit sharoitida quruq toladagi namlik, uning massasining necha foizini tashkil etishini ko'rsatadi. Konditsion namlik — tolanning me'yoriy sharoitdagi, ya'ni havo harorati  $20^{\circ}\text{C}$  va nisbiy namligi 65 foiz bo'lgan sharoitdagi namligi. Har bir tola uchun standart bo'yicha konditsion namlik tasdiqlanadi. Tolalarning gigiyenik xossalari ularning kimyoviy tarkibiga bog'liq.

Tolalarning tashqi muhit ta'siriga qarshilik ko'rsata olishi, ya'ni yorug'lik, namlik, ter va shuningdek ishqalanish, yuvish, ho'llab dazmollash va hokazo omillar ta'siriga chidamliligi buyumlarning to'zishiga chidamlilagini belgilaydi.



[givotnijmir.ru](http://givotnijmir.ru)

## 1. To'qimachilik gazlamalarining tasnifi. O'rilish turlari

Tola tarkibi bo'yicha:

- bir xil iplardan to'qil gazlamalar (paxta, jun, ipak, zig'ir);
- har xil iplardan to'qilgan gazlamalar (tanda va arqoq har xil iplar)
- aralashma tolalardan yigirilgan iplardan to'qilgan gazlamalar (paxta-viskoza, paxta-lavsan, jun-lavsan...)



 MyShared

Foydalaniладиганадабиょтлар:

1. Malseva E.P. Tikuvchilik material shunosligi, M.: Legprombitizzdat, 1986.
2. Ochilov T.A., N.G. Abbosova, F.J. Abdulina, Q.I. Abdulniyozov. "Gazlamashunoslik" . T.: A.Qodiriy. 2003.
3. R. Yusupova, M. Sattorov "To'qimachilik material shunosligi."
4. T.A. Ochilov, B.B. Ahmedov, S.Sh. Toshpo'latov. "Tikuvchilik material shunosligi". S harq. T.: 2008

